O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*60420100 – Yurisprudensiya bakalavriat ta'lim yo'nalishining*

# *MALAKA TALABI*

Toshkent-2024

O'zR OTFIV
Buyruq № 218
2024 yil "25" 06

**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**
Toshkent davlat yuridik universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil "25" 06 dagi 218 sonli buyrug'i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

| T/r | | bet |
|---|---|---|
| 1. | Umumiy tavsifi | 4 |
| 1.1. | Qo'llanish sohasi | 4 |
| 1.1.1. | Malaka talabining qo'llanilishi | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari | 4 |
| 1.2. | Kasbiy faoliyatlarning tavsifi | 4 |
| 1.2.1. | Kasbiy faoliyatning sohalari | 4 |
| 1.2.2. | Kasbiy faoliyatlarning obyektlari | 4 |
| 1.2.3. | Kasbiy faoliyatlarning turlari | 5 |
| 1.2.4. | Kasbiy vazifalar | 5 |
| **2.** | **Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar** | **5** |
| **3.** | **Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar** | **6** |
| **3.1.** | **Barcha ta'lim muassasalari uchun** | **6** |
| **3.2.** | **Bojxona instituti uchun** | **6** |
| **4.** | **Fanlar katalogining tuzilishi** | **7** |
| | **Bibliografik ma'lumotlar** | **11** |
| | **Kelishuv varag'i** | **12** |

**1. Umumiy tavsifi.**

*60420100 – Yurisprudensiya* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, sirtqi va masofaviy ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi (Bojxona institutida 5 baholi baholash) asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi va masofaviy ta'lim shakllari bo'yicha bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari bitiruvchilari, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash" soha mutaxassisligi hamda 60420100 – Yurisprudensiya (Tergov faoliyati) soha mutaxassisligi bo'yicha kunduzgi ta'lim shakli bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 3 yil. Sirtqi ta'lim ta'lim shakli bo'yicha bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 5 yil.

Nazariy va amaliy ta'limni to'liq o'zlashtirgan, yetarli darajadagi kreditlarni to'plagan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan, o'quv rejasi talablarini bajargan shaxsga "bakalavr" darajasi to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat beriladi.

**1.1. Qo'llanish sohasi:**

**1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talablari *60420100 – Yurisprudensiya* ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fanlar dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i (o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i va ushbu tarkibiy bo'linma vazifasini bajaruvchi bo'linma), dekanlar, kafedra mudirlari va professor-o'qituvchilari;

bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkiloti talabalari;

bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. Kasbiy faoliyatning tavsifi.**

**1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.**

*60420100 – Yurisprudensiya* – "Huquq" ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organlarida, sud, prokuratura, bojxona, adliya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarida, advokatlik tuzilmalarida, notariat idoralarida, tashqi iqtisodiy va siyosiy sohalardagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat idoralarida, xalqaro tashkilotlarda, shuningdek boshqa tijorat va notijorat tashkilotlarida, nodavlat hamda boshqa jamoat tuzilmalarida yuridik faoliyat sohalarini qamrab oladi.

**1.2.2. Kasbiy faoliyatning obyektlari.**

Davlat boshqaruvi organlari;

Sudlar, shu jumladan, xalqaro sudlar, xalqaro arbitraj;

Prokuratura organlari;

Bojxona organlari;

Tijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari;

Adliya organlari;

Notariuslar;

Advokatura;

FHDY organlari;

Xalqaro tashkilotlar;

huquqni muhofaza qilish organlar.

**1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:**

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati.

**1.2.4. Kasbiy vazifalar:**

*60420100–Yurisprudensiya* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**ilmiy-tadqiqot faoliyatda:**

ilmiy tadqiqot muassasasalari va markazlarda huquq sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

huquq sohasidagi milliy va xorijiy fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik ma'lumotlarni o'rganish, tahlil qilish va tizimlashtirish;

ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari qiyosiy tahlilini amalga oshirishda qatnashish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

**tashkiliy-boshqaruv hamda axborot-tahliliy faoliyatida:**

davlat va xo'jalik boshqaruvi, sud, prokuratura, bojxona, adliya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarda, advokatlik tuzilmalarida, shuningdek boshqa tijorat va notijorat tashkilotlar hamda xalqaro tashkilotlarda zimmasiga yuklangan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida ishlarni samarali tashkil etish;

huquqiy bilim va ko'nikmalari hamda mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish va to'g'ri yo'lga qo'yish;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish, huquq ijodkorlgi va huquqni qo'llash sohasida sifatni boshqarish;

kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida qarorlar qabul qilish hamda ularning muqobillarini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

zamonaviy axborot texnologiyalaridan boshqaruv, huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash sohalarida foydalana olish;

qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish va huquqni qo'llash amaliyotini samarali yo'lga qo'yish.

**2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar.**

kasbiy sohaga oid nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish;

milliy va xalqaro huquq normalarini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud, prokuratura, bojxona, adliya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda turli boshqa tashkilotlarning yuridik xizmatida qo'llash;

prokuror nazorati hujjatlari loyihalarini tayyorlay olish;

sudgacha talabnoma-da'vo ishlarini yuritishi va shartnomaviy munosabatlarda vakillik qilishi;

sud protsessida qatnashish, muzokaralar olib borishni tashkil etish, ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)lar bilan suhbatlashish, yuridik xulosalar berish va tahliliy ma'lumotlar tayyorlash, milliy qonunchilikni xorijiy mamlakatlar qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil qilgan holda qonunchilikka takliflar tayyorlash, yuridik audit o'tkazish (due diligence);

protsessual va boshqa hujjatlarni tuzish;

norma ijodkorligi faoliyatida, xususan, qonun loyihalari, qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlarni tayyorlash hamda ularning xalqaro xuquq normalari bilan o'zaro aloqasini tahlil qila olish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish;

qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash va nizoli masalalar doirasida qonun normalarini to'g'ri qo'llash;

nizolarga nisbatan milliy va xorijiy normativ-huquqiy hujjatlarni to'g'ri qo'llash;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tegishli lavozimlarida xizmat ko'rsatish;

sud, prokuratura, bojxona, adliya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarda faoliyat yuritish;

sud, prokuratura va tergov jarayoni bilan bog'liq hujjatlarning loyihalarini tayyorlay olish;

sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar protsessual hujjatlarini tahlil qila olish;

huquqiy sohada jamoada ishlay olish;

huquqiy sohada pedagogik faoliyatni amalga oshirish;

huquqiy sohada muloqotga kirishuvchan bo'lish;

advokatlik tuzilmalarida jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy yordam berish;

tashkilotlarda yuridik xizmatni ta'minlash;

huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligi ta'minlash bo'yicha faoliyatini uslubiy va konsultativ ta'minlash;

psixologik tayyorgarligi, huquqiy, siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirib borish, aholi va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash va o'zaro hamkorlik qilish ko'nikmalarini takomillashtirish ***qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.***

**3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

**3.1. Barcha ta'lim muassasalari uchun:**

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malakaviy amaliyot o'tkaziladi.

Malakaviy amaliyot – ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

**3.2. Bojxona instituti uchun:**

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. Tanishuv amaliyoti;
2. Malakaviy amaliyot;
3. Stajirovka.

**4. Fanlar katalogining tuzilishi tuzilishi:**

**4.1. "60420100 – Yurisprudensiya" ta'lim yo'nalishi uchun:**

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | | **Umumiy Majburiy fanlar** | **4400** | **176** | |
| 1.01 | HKM1105 | Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya | 125 | 5 | 1 |
| 1.02 | DIN1104 | Dinshunoslik | 100 | 4 | 1 |
| 1.03 | YUXT1105 | Yuristlar uchun xorijiy til | 125 | 5 | 1 |
| 1.04 | DHN1110 | Davlat va huquq nazariyasi | 250 | 10 | 1,2 |
| 1.05 | KONSH1110 | Konstitutsiyaviy huquq | 250 | 10 | 1,2 |
| 1.06 | DTIY1105 | Davlat tilida ish yuritish (Akademik yozuv) | 125 | 5 | 1 |
| 1.07 | DHT1204 | Davlat va huquq tarixi | 100 | 4 | 2 |
| 1.08 | O'ZBT1104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 100 | 4 | 1 |
| 1.09 | FHK1205 | Fuqarolik huquqiga kirish | 125 | 5 | 2 |
| 1.10 | HAT1204 | Huquqiy axborot texnologiyalari (legal tech) | 100 | 4 | 2 |
| 1.11 | F1204 | Falsafa | 100 | 4 | 2 |
| 1.12 | MH1310 | Ma'muriy huquq | 250 | 10 | 3,4 |
| 1.13 | JH1410 | Jinoyat huquqi | 250 | 10 | 3,4 |
| 1.14 | KH1405 | Korporativ huquq | 125 | 5 | 4 |
| 1.15 | EH1405 | Ekologiya huquqi | 125 | 5 | 4 |
| 1.16 | IH1305 | Inson huquqlari | 125 | 5 | 3 |
| 1.17 | MH1405 | Moliya huquqi | 125 | 5 | 4 |
| 1.18 | XOH1305 | Xalqaro ommaviy huquq | 125 | 5 | 3 |
| 1.19 | MH1305 | Mulk huquqi | 125 | 5 | 3 |
| 1.20 | YK1506 | Yuridik klinika/Street law/Amaliyot klublari/Moot court | 150 | 6 | 5 |
| 1.21 | MH1506 | Mehnat huquqi | 150 | 6 | 5 |
| 1.22 | JPH1506 | Jinoyat-protsessual huquqi | 150 | 6 | 5 |
| 1.23 | FPH1506 | Fuqarolik protsessual huquqi | 150 | 6 | 5 |
| 1.24 | KOS1606 | Konstitutsiyaviy odil sudlov | 150 | 6 | 6 |
| 1.25 | IPH1606 | Iqtisodiy protsessual huquq | 150 | 6 | 6 |
| 1.26 | MH1606 | Majburiyat huquqi | 150 | 6 | 6 |
| 1.27 | MSIY1606 | Ma'muriy sud ish yurituvi | 150 | 6 | 6 |
| 1.28 | YT1706 | Yuridik texnika | 150 | 6 | 7 |
| 1.29 | SHH1606 | Shartnoma huquqi | 150 | 6 | 7 |
| 1.30 | MTT1606 | Ma'muriy tartib-taomillar | 150 | 6 | 7 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **700** | **28** | |
| 2.00 | | *Tanlov fanlar* | - | - | |
| Kvalifikatsiya | | Yurist | | | |
| | | **Jami** | **5100** | **204** | |
| | | **Malakaviy amaliyot** | **900** | **36** | **8** |
| | | **Yakuniy davlat attestatsiyasi** | **-** | **-** | **8** |
| | | **Jami** | **900** | **36** | |
| | | **HAMMASI** | **6000** | **240** | |

**4.2. "60420100-Yurisprudensiya" (Bojxona huquqi) uchun:**

| T.r. | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Semestri |
|---|---|---|---|
| **1.00** | **Majburiy fanlar** | **4730** | |
| 1.01 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 42 | 1 |
| 1.02 | Diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari | 94 | 2 |
| 1.03 | Falsafa | 48 | 2 |
| 1.04 | Dinshunoslik | 84 | 1 |
| 1.05 | Rus (o'zbek) tili | 130 | 1,2 |
| 1.06 | Xorijiy til (ingliz) | 182 | 1,2,3,4 |
| 1.07 | Bojxonada axborot texnologiyalari asoslari | 188 | 3,4 |
| 1.08 | Iqtisodiyot nazariyasi | 156 | 1,2 |
| 1.09 | Davlat va huquq nazariyasi | 92 | 1,2 |
| 1.10 | Konstitutsiyaviy huquq | 98 | 2 |
| 1.11 | Xalqaro bojxona huquqi | 88 | 5 |
| 1.12 | Fuqarolik huquqi | 194 | 3,4 |
| 1.13 | Fuqarolik protsessual huquqi | 166 | 5,6 |
| 1.14 | Ma'muriy huquq | 118 | 3,4 |
| 1.15 | Jinoyat huquqi | 194 | 3,4 |
| 1.16 | Jinoyat protsessual huquqi | 166 | 5,6 |
| 1.17 | Moliya | 94 | 3 |
| 1.18 | Bojxona nazorati | 188 | 3,4 |
| 1.19 | Jismoniy va jangovor tayyorgarlik | 182 | 1,2,3,4 |
| 1.20 | Harbiy tayyorgarlik | 182 | 1,2,3,4 |
| 1.21 | Bojxona qiymati | 104 | 7 |
| 1.22 | Bojxona statistikasi va tahlil | 188 | 6,7 |
| 1.23 | Bojxona auditi asoslari | 104 | 7 |
| 1.24 | Tovarshunoslik va TIF TN | 178 | 1,2 |
| 1.25 | Iqtisodiy xavfsizlik | 42 | 5 |
| 1.26 | Bojxona organlarining tezkor-qidiruv faoliyati | 312 | 5,6,7 |
| 1.27 | Davlat sirlari va maxfiylik tartiboti | 48 | 3 |
| 1.28 | Bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha ish yuritish | 188 | 6,7 |
| 1.29 | Kriminologiya | 52 | 7 |
| 1.30 | Kriminalistika | 104 | 7 |
| 1.31 | Axborot-tahliliy faoliyat asoslari | 104 | 7 |
| 1.32 | TIFni tartibga solish asoslari | 94 | 5 |
| 1.33 | Bojxona to'lovlari | 166 | 5,6 |
| 1.34 | Bojxona rejimlari (protseduralari) | 166 | 5,6 |
| 1.35 | Bojxona ishida ekspertiza | 42 | 6 |
| 1.36 | Tashqi savdoda notarif tartibga solish | 48 | 4 |
| 1.37 | Xorijiy mamlakatlarda bojxona ishi | 104 | 7 |
| **2.00** | **Tanlov fanlari** | **526** | |
| 2.00 | *Tanlov fanlari* | 526 | 1-7 |
| Kvalifikatsiya | Yurist | | |
| | **Jami** | **5256** | |
| | Malakaviy amaliyot | 1260 | 2,4,6,8 |
| | Attestatsiyalar | 612 | 1-8 |
| | Bitiruv malakaviy ishi | 72 | 8 |
| | **Jami** | **1944** | |
| | **HAMMASI** | **7200** | |

**4.3. "60420100-Yurisprudensiya" (transchegaraviy suv va ekologiya faoliyati turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun:**

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|---|---|---|---|---|---|
| **1** | | **Umumiy Majburiy fanlar** | **4380** | **146** | |
| 1.01 | HKvaM1A5 | Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya | 150 | 5 | 2 |
| 1.02 | YUXT1A12 | Yuristlar uchun xorijiy til | 360 | 12 | 1,2 |
| 1.03 | DHN1A10 | Davlat va huquq nazariyasi | 300 | 10 | 1,2 |
| 1.04 | KONSH1A10 | Konstitutsiyaviy huquq | 300 | 10 | 1,2 |
| 1.05 | DTIY1A5 | Davlat tilida ish yuritish (Akademik yozuv) | 150 | 5 | 1 |
| 1.06 | DHT/RH1A5 | Davlat va huquq tarixi/Rim huquqi | 150 | 5 | 2 |
| 1.07 | FALS1A5 | Falsafa va mantiq | 150 | 5 | 1 |
| 1.08 | DIN1A4 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 2 |
| 1.09 | O'ZBT1A4 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.1 | MA'MH2A4 | Ma'muriy huquq | 120 | 4 | 3 |
| 1.11 | JINH2A8 | Jinoyat huquqi | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.12 | FUQHI2A5 | Fuqarolik huquqi I | 150 | 5 | 3 |
| 1.13 | SH2A4 | Suv huquqi | 120 | 4 | 4 |
| 1.14 | EH2A5 | Ekologiya huquqi | 150 | 5 | 3 |
| 1.15 | MEHNH2A4 | Mehnat huquqi | 120 | 4 | 4 |
| 1.16 | FUQHII2A5 | Fuqarolik huquqi II | 150 | 5 | 4 |
| 1.17 | JPH3A6 | Jinoyat-protsessual huquqi | 180 | 6 | 5 |
| 1.18 | FPH3A5 | Fuqarolik protsessual huquqi | 150 | 5 | 5 |
| 1.19 | KORPH3A5 | Iqtisodiy protsessual huquq | 150 | 5 | 5 |
| 1.20 | BIZNH 3A4 | Biznes huquqi | 120 | 4 | 5 |
| 1.21 | M'AMJ3A5 | Ma'muriy javobgarlik | 150 | 5 | 6 |
| 1.22 | SFM3A4 | Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish | 120 | 4 | 6 |
| 1.23 | XXH4A4 | Xalqaro xususiy huquq | 120 | 4 | 6 |
| 1.24 | KRIMKA4A4 | Kriminalistika | 120 | 4 | 7 |
| 1.25 | XDSHM4A5 | Xalqaro, davlat suv huquqi va munosabatlari | 150 | 5 | 7 |
| 1.26 | AMT4A5 | Atrof-muhitga bo'layotgan ta'sirlarni baholash | 150 | 5 | 7 |
| 1.27 | IH4A4 | Investitsiya huquqi | 120 | 4 | 7 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **1920** | **64** | |
| 2.00 | | *Tanlov fanlar* | - | - | |
| Kvalifikatsiya | | Yurist | | | |
| | | **Jami** | **6300** | **210** | |
| | | **Malakaviy amaliyot** | **900** | **30** | **8** |
| | | **Yakuniy davlat attestatsiyasi** | - | - | |
| | | **HAMMASI** | **7200** | **240** | |

**4.4. 60420100 – Yurisprudensiya (qishloq xo'jaligi huquqi) ta'lim yo'nalishi uchun:**

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | | **Majburiy fanlar** | **5040** | **168** | |
| 1.01 | DTIYU1104 | Davlat tilida ish yuritish (Akademik yozuv) | 180 | 6 | 1 |
| 1.02 | O'EYT1104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.03 | YUXT11208 | Yuristlar uchun xorijiy til | 240 | 8 | 1,2 |
| 1.04 | DHN11210 | Davlat va huquq nazariyasi | 300 | 10 | 1,2 |
| 1.05 | KH11208 | Konstitutsiyaviy huquq | 300 | 10 | 1,2 |
| 1.06 | SHMQO1106 | Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar | 180 | 6 | 1 |
| 1.07 | HKM1206 | Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya | 180 | 6 | 2 |
| 1.08 | FAL1204 | Falsafa | 120 | 4 | 2 |
| 1.09 | DIN1204 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 2 |
| 1.10 | MH13408 | Ma'muriy huquq | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.11 | JH13410 | Jinoyat huquqi | 300 | 10 | 3,4 |
| 1.12 | FHK13408 | Fuqarolik huquqi | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.13 | MEHH13408 | Mehnat huquq | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.14 | MOLH1304 | Moliya huquqi | 120 | 4 | 3 |
| 1.15 | JPH1504 | Jinoyat-protsessual huquqi | 120 | 4 | 5 |
| 1.16 | FPH1504 | Fuqarolik-protsessual huquq | 120 | 4 | 5 |
| 1.17 | OH1504 | Oila huquqi | 120 | 4 | 5 |
| 1.18 | XOH1604 | Xalqaro ommaviy huquq | 120 | 4 | 6 |
| 1.19 | IPH1604 | Iqtisodiy protsessual huquqi | 120 | 4 | 6 |
| 1.20 | BHKH15608 | Biznes huquqi. Korporativ huquq | 240 | 8 | 5,6 |
| 1.21 | MSIYU1504 | Ma'muriy sud ishi yurituvi | 120 | 4 | 5 |
| 1.22 | XXH1704 | Xalqaro xususiy huquq | 120 | 4 | 7 |
| 1.23 | KRM1704 | Kriminalistika | 120 | 4 | 7 |
| 1.24 | JIH1704 | Jinoyat-ijroiya huquqi | 120 | 4 | 7 |
| 1.25 | AGRH13408 | Agrar huquq | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.26 | EKH1504 | Ekologiya huquqi | 120 | 4 | 5 |
| 1.27 | YERH1604 | Yer huquqi | 120 | 4 | 6 |
| 1.28 | SOLH1604 | Soliq huquqi | 120 | 4 | 6 |
| 1.29 | SUG'H1604 | Sug'urta huquqi | 120 | 4 | 6 |
| 1.30 | BOJH1704 | Bojxona huquqi | 120 | 4 | 7 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **960** | **32** | 3,4,5,6,7 |
| 2.00 | | Tanlov fanlar | 960 | **32** | 3,4,5,6,7 |
| Kvalifikatsiya | | Yurist | | | |
| | | **Jami** | **6000** | **200** | **1-7** |
| | MAB3840 | Malakaviy amaliyot | 1200 | **40** | **2,4,6,8** |
| | YDA | Yakuniy davlat attestatsiyasi | - | - | **8** |
| | | **Jami** | **1200** | **40** | |
| | | **HAMMASI** | **7200** | **240** | |

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7 Guruh T 55

OKS 01.040.01

**Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat tasnifi, kasbiy faoliyat sohalari, modul, muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), klinik ta'lim, kredit, yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kasbiy faoliyat obyekti, o'quv dasturi, soha mutaxassisligi, o'qib o'rganish natijalari, huquqiy tizim, sud protsessi, muzokaralar, yuridik xulosalar, tahliliy ma'lumotlar, yuridik audit (due diligence), huquq normalarini sharhlash, huquqni qo'llash amaliyoti, qonuniylik, huquq ustuvorligi, huquq-tartibot, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquq normalari, huquq shakllari, huquq ijodkorligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat xavfsizligi, psixologik tayyorgarlik.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste’molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

Toshkent davlat yuridik universiteti

**Rektor v.v.b.** ____________ **I. Rustambekov**

2024-yil “_____” _____________

Bojxona instituti

**Boshliq v.v.b.** ____________ **U. Tadjiyev**

2024-yil “_____” _____________

**KELISHILDI:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

**Direktor** ____________ **M. Boltabayev**

2024-yil “_____” _____________

M.O‘.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi

**Vazir o‘rinbosari** ____________ **Sh. Rabiyev**

2024-yil “_____” _____________

M.O‘.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi

**Rais o‘rinbosari** ____________ **I. Muslimov**

2024-yil “_____” _____________

M.O‘.

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

**Boshliqning birinchi o‘rinbosari** ____________ **Y. Kolenko**

2024-yil “_____” _____________

M.O‘.

O‘zbekiston Respublikasi
Advokatlar palatasi

**Rais**
**o‘rinbosari_________ A. Maxammadiyev**

2024-yil “_____” _____________

M.O‘.

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
Bojxona qo‘mitasi

**Raisning birinchi**
**o‘rinbosari _____________ I. Muxtorov**

2024-yil “_____” _____________

M.O‘.